

Dilfuza Xasanboyeva

*Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi
katta ilmiy xodimasi*

E-mail: dilfuzaikramovna7@gmail.com

ORCID: 0009-0003-0787-9046

Mashxura Toshboltayeva

*Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi
san'at bo'limi boshlig'i*

E-mail: mashurahontosboltaeva@gmail.com

ORCID: 0009-0008-9759-6520

FARG'ONA SHAHRI ASOSIY ME'MORIY YODGORLIKLARI: TARIXIY TAHLIL, HOZIRGI HOLATI VA MUHOFAZASI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Farg'ona shahri hududida joylashgan moddiy madaniy meros obyektlari – asosiy 10ta me'moriy yodgorlikning tarixiy shakllanishi, arxitektura xususiyatlari va zamonaviy holati tizimli tahlil etilgan. Tadqiqotda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida “bog’-shahar” konsepsiyasi asosida barpo etilgan ma'muriy, jamoat, ta'lim va diniy binolar hamda mustaqillik davri me'morchiligi namunalarining texnik ko'rsatkichlari, arxiv-muzey ma'lumotlari va funksional rivojlanishi yoritilgan. Yakunda ushbu tarixiy binolarni konservatsiya qilish, ulardan samarali foydalanish va shahar turizm klasteriga integratsiyalash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** madaniy meros, Farg'ona shahri, me'moriy yodgorliklar, “bog’-shahar”, muzeyshunoslik, tarixiy binolar muhofazasi, turizm.*

ОСНОВНЫЕ АРХИТЕКТУРНЫЕ ПАМЯТНИКИ ГОРОДА ФЕРГАНЫ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ, СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ОХРАНА

***Аннотация.** В статье системно анализируются историческое формирование, архитектурные особенности и современное состояние 10 основных объектов архитектурного наследия, расположенных на территории города Ферганы. В исследовании освещаются административные, общественные, образовательные и религиозные здания,*

построенные в конце XIX – начале XX века на основе концепции «города-сада», а также образцы архитектуры периода независимости. Рассматриваются их технические характеристики, архивно-музейные сведения и функциональное развитие. В заключении представлены научно-практические рекомендации по консервации исторических зданий, их эффективному использованию и интеграции в городской туристический кластер.

Ключевые слова: культурное наследие, город Фергана, архитектурные памятники, «город-сад», музееведение, охрана исторических зданий, туризм.

THE MAIN ARCHITECTURAL MONUMENTS OF FERGANA CITY: HISTORICAL ANALYSIS, CURRENT CONDITION AND PRESERVATION

Abstract. *This article provides a systematic analysis of the historical formation, architectural features, and current condition of 10 major architectural heritage sites located in the city of Fergana. The study examines administrative, public, educational, and religious buildings constructed in the late 19th and early 20th centuries based on the “garden city” concept, as well as examples of architecture from the period of independence. Their technical characteristics, archival and museum data, and functional development are discussed. The article concludes with scientific and practical recommendations for the conservation of these historic buildings, their effective use, and their integration into the city’s tourism cluster.*

Keywords: *cultural heritage, Fergana city, architectural monuments, “garden city”, museology, preservation of historic buildings, tourism.*

O'zbekiston Respublikasida tarixiy-madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash, ta'mirlash-tiklash hamda ulardan ilmiy-ma'rifiy va turistik maqsadlarda samarali foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sohaga oid qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va Madaniy meros agentligi faoliyati hududlardagi noyob obidalarni tizimli inventarizatsiya qilish va targ'ib etishga keng yo'l ochdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi 846-sonli qarori bilan tasdiqlangan Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga ko'ra, Farg'ona viloyatida 38ta madaniy meros obyekti qayd etilgan bo'lib, shundan 142tasini arxitektura yodgorliklari tashkil etadi. Mazkur ko'chmas mulk obyektlarining 18tasi bevosita Farg'ona shahri hududida joylashgan. Ular orasida shaharning o'ziga xos tarixiy-me'moriy qiyofasini belgilab beruvchi 10ta asosiy me'moriy yodgorlik alohida ahamiyatga ega.

Farg'ona shahrining XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan shaharsozlik tarixi Turkiston o'lkasining boshqa an'anaviy shaharlaridan keskin farq qilib, "bog'-shahar" konsepsiyasi va pishiq g'ishtli yevropacha me'morchilik uslubining mahalliy iqlim sharoitlariga moslashuvi asosida shakllangan. Biroq ushbu me'moriy yodgorliklarning aksariyati bugungi kungacha kompleks ilmiy tahlil qilinmagan, ularning tarixiy arxivi, hozirgi muhofaza holati va turistik imkoniyatlari yagona tadqiqot sifatida umumlashtirilmagan.

Tadqiqotning maqsadi – Farg'ona shahridagi 10ta asosiy me'moriy yodgorlikning tarixiy shakllanishi, konstruktiv-me'moriy jihatlari, hozirgi saqlanish holati va ulardan foydalanish yo'nalishlarini ilmiy tahlil qilish hamda ularni muhofaza qilish va targ'ib etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Farg'ona shahri me'moriy muhiti shakllanishining tarixiy omillarini ko'rib chiqish;
- shahardagi 10ta asosiy me'moriy yodgorlikning (ma'muriy, diniy, ta'lim va jamoat inshootlari) loyiha mualliflari, qurilish davri va arxitekturaviy yechimlarini tahlil etish;
- obidalarining zamonaviy texnik holati, egaligi va foydalanish funksiyalarini baholash;
- me'moriy yodgorliklarni konservatsiya qilish va shahar turizm yo'nalishlariga integratsiya qilish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar shakllantirish.

Tadqiqotning manbaviy bazasini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi 846-sonli va 2018-yil 28-avgustdagi 708-F-sonli qarorlari, Farg'ona viloyati hokimining qarorlari, Farg'ona viloyati Madaniy meros boshqarmasining texnik pasportlari hamda Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining foto va arxiv hujjatlari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy, me'moriy-tavsifiy, funksional va tizimli tahlil usullari qo'llanildi. Shuningdek, obyektlarning bugungi holatini baholashda dala-kuzatuv va fotofiksatsiya metodlaridan foydalanildi.

Farg'ona shahrining shaharsozlik xususiyatlari

Farg'ona shahriga 1876-yilda sobiq Qo'qon xonligi tugatilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibida Farg'ona viloyati tashkil etilishi munosabati bilan harbiy-ma'muriy markaz sifatida asos solingan. Dastlab "Yangi Marg'ilon", 1907-yildan "Skobelev", 1924-yildan esa "Farg'ona" deb nomlangan. Shahar radial-halqasimon tizimda, to'g'ri burchakli keng ko'chalar va ko'kalamzorlashtirilgan xiyobonlar uyg'unligidagi "bog'-shahar" konsepsiyasi asosida barpo etildi. Uning tarixiy markazida barpo etilgan binolar asosan mahalliy sariq pishiq g'ishtdan milliy va yevropacha (klassitsizm, modern, neogotika) me'moriy uslublar sintezida qad ko'tardi.

Milliy ro'yxatga ko'ra shahardagi 18ta madaniy meros obyektidan 10tasi me'moriy yodgorlik maqomiga ega bo'lib, quyida ularning xronologik va funksional xususiyatlari tahlil etiladi:

Me'moriy yodgorliklar


Farg'ona shahridagi me'moriy yodgorliklarning aksariyati Rossiya imperiyasi davrida, shaharning harbiy shahar sifatida barpo etilishi bilan bog'liq holda, asosan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qurilgan. Ular ma'muriy, tibbiy, ta'lim va diniy vazifalarni bajargan binolar bo'lib, bugungi kunda turli muassasalar tomonidan foydalanilmoqda.

1. "Qurt urug'i zavodi" ("Yevtixidi" – Grenajniy zavod).

Manzili: Farg'ona shahar, Burhoniddin Marg'iloniy ko'chasi, 69-A uy. Davri: XIX asr. Maydoni: 2071,18 kv.m. Hozirgi foydalanish holati: AT "Aloqa bank" Farg'ona filiali.

Arxitektura yodgorligi hisoblangan bir qavatli bino XIX asrda ipak qurti urug'larining seleksiyasini yaxshilash hamda dehqonlarni doimiy ravishda sifatli ipak qurti urug'lari bilan ta'minlash maqsadida maxsus qurilgan. Farg'ona vodiysida hunarmandchilik, jumladan, ipakchilik qadimdan rivojlangan bo'lib, Rossiya imperiyasi davrida Yangi Marg'ilonda (hozirgi Farg'ona shahri) shunday urug'chilik muassasasi 1899-yilda K.X.Yevtixid tomonidan barpo etilgan.

K.X.Yevtixidning urug'chilik korxonasi butun Turkistondagi eng yirik va mashhur korxonalardan biri bo'lib, unda, boshqa mavsumiy korxonalardan farqli o'laroq, doimiy shtatdagi ishchilar faoliyat ko'rsatgan. Korxonada 100 nafargacha kishi, asosan mahalliy ayollar mehnat qilgan. Tayyorlangan sog'lom urug'lar dehqonlarga tarqatilgan hamda Rossiya va xorijiy davlatlarga jo'natilgan. 2000-yillarga qadar ushbu bino Farg'ona gren (ipak qurti) zavodining urug' saqlash ombori vazifasini bajargan. Hozirda bino yaxshi holatda saqlangan bo'lib, Farg'ona viloyati Madaniy meros boshqarmasi balansida turadi.



1-rasm. Qurt urug'i zavodi

2. "Cherkov binosi", "Sergiy Radojenskiy" pravoslav cherkovi.

Manzili: Farg'ona shahar, Navro'z MFY, Sakkokiy ko'chasi, 8-uy. Davri: XIX asr (1903–1905). Maydoni: 2071,18 kv.m. Hozirgi foydalanish holati: pravoslav cherkovi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Cherkov binosi 1903–1905-yillarda Farg'ona shahri qurilishida ishtirok etgan katolik dinidagi polyaklar uchun qurilgan bo'lib, dastlab katolik, keyinchalik esa hozirgi kunga qadar pravoslav cherkovi sifatida foydalanib kelinmoqda. 1930-yildan 1952-yilgacha bino nemis-lyuteran cherkovi vazifasini ham bajargan. Cherkov binosi Farg'ona viloyati hokimining 2006-yil 25-avgust 210-son qarori bilan madaniy meros obyektlari ro'yxatiga kiritilgan.

Cherkov qurilishi rus me'morlari rahbarligida mahalliy ustalar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, barcha Farg'ona vodiysidagi shahar va harbiy cherkovlar an'anaga ko'ra to'g'ri sharqqa qaratib qurilgan. Bugungi kunda Farg'ona viloyatida pravoslav yo'nalishiga mansub rasman uchta cherkov (Farg'ona, Qo'qon, Quvasoy) faoliyat ko'rsatadi. Cherkovning uch qavatli ikonasi 1952–1954-yillarda rassom Mariya Sokoloviy tomonidan yaratilgan bo'lib, haftaning shanba va yakshanba kunlari cherkovda diniy marosimlar o'tkaziladi.



2-rasm. Cherkov binosi

3. “Kirxa” cherkovi binosi.

Manzili: Farg'ona shahar, Shukrona ko'chasi, 59-uy. Davri: 1905-yil
Maydoni: 486,4 kv.m. Hozirgi foydalanish holati: hozirda foydalanilmaydi.

“Kirxa” binosi pishiq g'ishtdan o'sha davr arxitekturasida 1905-yilda lyuteran diniga mansub aholi uchun qurilgan. “Kirxa” so'zi nemis tilidan olingan bo'lib, “cherkov” ma'nosini anglatadi; bu diniy oqim Germaniyada XVI asrda Martin Lyuter tomonidan asos solingan. Bino Farg'ona viloyati hokimining 2006-yil 25-avgust 210-son qarori bilan madaniy meros obyektlari ro'yxatiga kiritilgan.

Ikkinchi jahon urushi davrida bino yarador bo'lganlarni taqsimlash punkti, keyinchalik Maxsus aloqa boshqarmasi, 2009–2023-yillarda esa Farg'ona viloyati Madaniy meros inspeksiyasi binosi sifatida foydalanilgan. Hozirda bino foydalanilmasada, qoniqarli holatda saqlanmoqda va viloyat Madaniy meros boshqarmasi balansida turadi.



3-rasm. “Kirxa” cherkovi binosi

4. “Farg'ona viloyati Sog'liqni saqlash boshqarmasi binosi”.

Manzili: Farg'ona shahar, Yuksalish ko'chasi, 104-A uy. Davri: 1905-yil. Maydoni: 1802,8 kv.m. Hozirgi foydalanish holati: Farg'ona viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi.

Bir qavatli bino 1905-yilda poydevori toshdan, devorlari xom g'ishtdan, pollari taxtadan qurilgan bo'lib, o'z davrida shifoxona vazifasini bajargan. Rossiya imperiyasi davrida harbiy shahar sifatida asos solingan Farg'ona shahrida davolash muassasalari soni juda cheklangan bo'lib, 1913-yilga kelib shahar shifoxonasida 35tagacha, temir yo'l shifoxonasida 15ta, ko'z davolash shifoxonasida esa 12tagacha bemor xizmat ko'rgan.

1913-yilda shaharda jami 24 nafar tibbiy xodim, shundan 6 nafari vrach faoliyat ko'rsatgan; jumladan, Mordkovich Nikolay Aleksandrovich va Geyshtor Mariya Alekseyevna kabi vrachlar viloyat va shahar aholisi uchun katta fidoyilik ko'rsatgan. Bino yaxshi holatda bo'lib, 2006-yil 210-son qaror bilan madaniy meros obyektlari ro'yxatiga kiritilgan va viloyat Madaniy meros boshqarmasi balansida turadi.



4-rasm. Farg'ona viloyati Sog'liqni saqlash boshqarmasi binosi

5. "Madaniyat uyi binosi".

Manzili: Farg'ona shahar, Kashtanzor ko'chasi, 10-uy. Davri: XIX asr (1903). Maydoni: 1887,05 kv.m. Hozirgi foydalanish holati: Farg'ona viloyati Madaniyat Markazi.

Bino 1903-yilda arxitektor E.Brun rahbarligida qizlar gimnaziyasi uchun maxsus qurilgan bo'lib, dastlab rus millatiga mansub qizlarning ta'lim olishiga mo'ljallangan. Gimnaziya tarkibida "Mariya" qizlar uchilishi bazasida tashkil etilib, 1901-yilda qizlar gimnaziyasi deb nomlangan; unda rus tili, tarix, geografiya, arifmetika, tabiiy tarix, fizika va boshqa fanlar o'qitilgan.

Gimnaziya o'quvchilarining kundalik, daftar va ba'zi attestatlari hozirda Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida saqlanmoqda. 1982-yildan buyon binoda Farg'ona viloyati Madaniyat markazi faoliyat yuritib kelmoqda (turli yillarda №1-sonli madaniyat uyi, shahar markaziy madaniyat uyi kabi nomlar bilan atalgan). Bino 2006-yil 210-son qaror bilan davlat muhofazasiga olingan.



5-rasm. Madaniyat uyi binosi


6. "Drama teatri binosi".

Manzili: Farg'ona shahar, Ahmad Al-Farg'oniy ko'chasi, 36-uy. Davri: XIX asr (1880–1891). Maydoni: 2151,99 kv.m. Hozirgi foydalanish holati: Farg'ona musiqali drama teatri.

Ikki qavatli bino dastlab viloyat gubernatorlari uchun "Gubernatorlar uyi" sifatida harbiy muhandis I.R.Sakovich loyihasi asosida 1880-yillar boshida qurila

boshlanib, 1891-yilda bitkazilgan. Bino orqasida gubernator bog'i (hozirgi Ahmad al-Farg'oniy oromgohi) barpo etilgan.

Keyingi yillarda binoda viloyat o'zbek drama teatri, so'ngra 2021-yilga qadar Farg'ona viloyati arxitektura va qurilish bosh boshqarmasi joylashgan. Farg'ona viloyati hokimligining 2021-yil 16-iyundagi qaroriga asosan bino Farg'ona musiqali drama teatriga qaytarilib, qayta ta'mirlanmoqda. Bino yaxshi holatda bo'lib, 2006-yil 210-son qaror bilan davlat muhofazasiga olingan.



6-rasm. Drama teatri binosi

7. "Zobitlar uyi binosi".

Manzili: Farg'ona shahar, Ahmad Al-Farg'oniy ko'chasi, 48-uy. Davri: XIX asr (1873; 1878–1879). Maydoni: 13405,96 kv.m. Hozirgi foydalanish holati: "ISMA" nomidagi xalqaro universitet.

Ikki qavatli bino harbiy muhandis I.U.Jilin loyihasi asosida 1878–1879-yillarda "Harbiylar yig'inlari uyi" ("Dom ofitserov") sifatida qurilgan bo'lib, unda o'yin va oshxona zallari, sahna, kutubxona, biliard xonasi bo'lgan. Bu yerda shahar aholisi, asosan rus millatiga mansub aholi, bo'sh vaqtini o'tkazgan, havaskor va sayohatchi artistlar spektakllar namoyish etgan.

1991-yildan 2018-yilgacha bino sharqiy harbiy okrugining harbiy orkestri va tadbirlari uchun, so'ngra Farg'ona shahar davlat statistika bo'limi tomonidan

foydalanilgan. Hozirda binoda Latviyadagi "ISMA" xalqaro universitetining Farg'ona shahridagi filiali faoliyat yuritmoqda. Bino 2006 yil 210-son qaror bilan davlat muhofazasiga olingan.



7-rasm. Zobitlar uyi binosi

8. "Universitet binosi" (sobiq Erkaklar gimnaziyasi).

Manzili: Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Davri: XIX asr (1903). Maydoni: 2670,87 kv.m. Hozirgi foydalanish holati: Farg'ona Davlat universiteti ma'muriyati.

Ikki qavatli pishiq g'ishtdan qurilgan bino 1903 yilda arxitektor T.M.Svarichevskiy loyihasi asosida Erkaklar gimnaziyasi uchun qurilgan. Binoda 1903-yildan erkaklar gimnaziyasi, 1918–1920-yillarda Turkiston harbiy okrugi shtabi, 1930-yildan uch yillik Farg'ona pedagogika instituti, 1940–1945-yillarda front orti gospitali, urushdan keyin yana pedagogika instituti, 1991-yildan boshlab esa Farg'ona Davlat universiteti faoliyat yuritib kelmoqda.

Erkaklar gimnaziyasida diniy ta'lim, rus, lotin, yunon, fransuz va nemis tillari, matematika, fizika, tarix, geografiya kabi fanlar o'qitilgan; o'qish pulliligi sababli kambag'al oilalar farzandlari o'qiy olmagan. Gimnaziya bitiruvchilarining o'quv

qurollari va attestatlari Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ekspozitsiyalarida saqlanib, namoyish etilmoqda. Hozirda binoda shuningdek FarDU qoshidagi "Qatag'on qurbonlari muzeyi" ham joylashgan.




8-rasm. Universitet binosi

9. "O'zstandart" boshqarmasi binosi. (Sobiq Harbiy temirchilar o'quv punkti).

Manzili: Farg'ona shahar, B.Marg'iloniy ko'chasi, 119-uy. Davri: XIX asr (1904). Maydoni: 2472,79 kv.m. Hozirgi foydalanish holati: Farg'ona standartlashtirish va metrologiya boshqarmasi; 2023-yildan Madaniy meros agentligi viloyat boshqarmasi.

Bir qavatli pishiq g'ishtli bino harbiy muhandis M.G.Svarechevskiy loyihasi asosida 1904-yilda "Harbiy temirchilar o'quv punkti" sifatida qurilgan. Keyinchalik bino 1918-yilda harbiy polk shtabi, 1960-yildan harbiylar turar joyi, so'ngra mahalla fuqarolar yig'ini va fermer xo'jaliklari assotsiatsiyasi binosi sifatida foydalanilgan.

1992-yildan boshlab binoda Farg'ona "O'zstandart" standartlashtirish va metrologiya boshqarmasi, 2023-yildan esa qo'shimcha ravishda Madaniy meros agentligining viloyat boshqarmalari faoliyat yuritmoqda. Bino qoniqarli holatda bo'lib, 2006-yil 210-son qaror bilan davlat muhofazasiga olingan.



9-rasm. “O‘zstandart” boshqarmasi binosi

10. “Mustaqillik darvozasi”.

Manzili: Farg‘ona shahar, Buyuk ipak yo‘li ko‘chasi. Davri: 1992-yil.
Maydoni: 100 kv.m. Hozirgi foydalanish holati: Farg‘ona shahar obodonlashtirish boshqarmasi.

Farg‘ona shahriga g‘arb tomondan kirish joyida joylashgan “Mustaqillik darvozasi” sharqona “Ark” uslubida pishiq g‘isht va yog‘och materiallardan 1992-yilda barpo etilgan. Darvoza Farg‘ona shahar hokimligining 1992-yil 13-avgustdagi qaroriga asosan qurilib, qurilish-montaj ishlari 8-qurilish tresti tomonidan amalga oshirilgan; unga davlat byudjeti mablag‘lari bilan bir qatorda xorijdagi vatandoshlarimiz homiyligi ham jalb qilingan.

Darvoza 1992-yil 25-dekabrda ochilgan bo‘lib, tantanada O‘zbekiston hukumati rahbariyati, Qirg‘iziston va Tojikistondan delegatsiyalar ishtirok etgan. Farg‘ona viloyati hokimligining 1995-yil 4-yanvardagi qaroriga asosan unga rasman “Mustaqillik darvozasi” nomi berilgan. Darvoza shaharning ramzi va faxri bo‘lib, madaniy meros hamda turistik obyekt maqomiga ega; u 2006-yil 210-son qaror bilan davlat muhofazasiga olingan.



10-rasm. “Mustaqillik darvozasi”.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Farg'ona shahrining me'moriy yodgorliklari umumiy hisobda qoniqarli saqlangan bo'lsa-da, ularni muhofaza qilish va foydalanishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1. Tarixiy qiyofani saqlab qolish va restavratsiya: Qator tarixiy binolarning (masalan, Sog'liqni saqlash boshqarmasi binosi) fasadiga nomutanosib zamonaviy qurilish materiallari (akfa-plastik derazalar, alpokon, zamonaviy bo'yoqlar) ishlatilgan. Ta'mirlash ishlarini Madaniy meros agentligining maxsus ilmiy xulosalari asosida, binoning tarixiy asliyatini buzmagani holda olib borish lozim.

2. “Kirxa” binosini revitalizatsiya qilish: Hozirda bo'sh turgan “Kirxa” yodgorligi negizida Farg'ona shaharsozlik va arxitektura tarixi muzeyini yoki san'at galereyasini tashkil etish, bu orqali binoni muntazam qarov va isitish tizimi bilan ta'minlash maqsadga muvofiq.

3. Raqamlashtirish va axborotlashtirish: Shahardagi barcha 10ta me'moriy yodgorlikka ko'p tilli (o'zbek, ingliz, rus) QR-kodli ma'lumot taxtachalarini o'rnatish, ularni yagona “Farg'ona shahri me'moriy yo'nalishi” nomli onlayn turistik xaritaga kiritish.

4. Turistik klasterga integratsiya: Ushbu yodgorliklarni shahar markaziy istirohat bog'i va viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi bilan bog'lovchi piyodalar uchun mo'ljallangan "tarixiy-me'moriy marshrut"ni ishlab chiqish.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Farg'ona shahridagi me'moriy yodgorliklar Markaziy Osiyoda kam uchraydigan XIX asr oxiri – XX asr boshlari shaharsozlik madaniyatining yuqori darajadagi namunasidir. Shahardagi 10ta asosiy me'moriy yodgorlik ma'muriy, ijtimoiy va madaniy markaz sifatida bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ushbu binolarning asl tarixiy ko'rinishini saqlab qolish, restavratsiya me'yorlarini qat'iy nazoratga olish hamda ularni zamonaviy shahar turizm infratuzilmasiga to'liq jalb qilish hududning madaniy va iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 4-oktyabrdagi 846-sonli qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-avgustdagi 708-F-sonli farmoyishi.

3. Farg'ona viloyati hokimining 2006-yil 25-avgustdagi "Madaniy meros obyektlarini davlat muhofazasiga olish to'g'risida"gi 210-sonli qarori.

4. Нильсен В. У истоков современного градостроительства Узбекистана (XIX – начало XX вв.). – Ташкент: Изд-во литературы и искусства, 1988. – 210 с.

5. Азимов И. Архитектурные памятники Ферганской долины. – Ташкент: Узбекистан, 1982. – 72 с.

6. Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy arxivi materiallari (fotonegativlar, tarixiy spravkalar fondi).

7. Farg'ona viloyati Madaniy meros boshqarmasi ma'lumotlari va texnik pasportlari.